

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 6-oyi davomida
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash “NKMK” AJda har yili amalga oshiriladi.

Hususan, 2022-yilda o‘tkazilgan baholashda **19 ta yuqori** va **57 ta o‘rta**, 2023-yilda **3 ta yuqori** va **45 ta o‘rta** hamda 2024-yilda **1 ta yuqori** va **19 ta o‘rta** xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalar aniqlanib, ushbu xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Masalan, “NKMK” AJning 2024-yil 21-oktabrdagi 700-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **1 478 ta** funksiyalarning **1 tasi** “yuqori”, **19 tasi** “o‘rta” va **1 458 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 23-yanvarda **14** banddan iborat korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korruptsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korruptsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati hamda korruptsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirib, tasdiqlangan.

2025-yil 30-iyun holatiga Dasturning **8 ta** bandi ijrosi ta’minlandi, shundan **2 ta** funksiya avtomatlashtirilgan, **6 tasi** tartibga solingan va **6 ta** bandlar ijrosi davom etmoqda.

Komplayens xizmati